

**IELTS KURSLARIDA TBLT VA EKSPLITSIT METODLARNI
INTEGRATSIYA QILISH: SIFAT VA ORTTIRMA DARAJALARINI
O‘QITISH MISOLIDA
INTEGRATING TBLT AND EXPLICIT INSTRUCTION IN IELTS CLASSES:
TEACHING DEGREES OF ADJECTIVES**

Akbaraliyeva Guljazira

Renessans ta’lim universiteti

Xorijiy filologiya va tarix fakulteti

Filologiya va tillarni o‘qitish yo‘nalishi

2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Xushboqova Nafisa

Annotatsiya. *Ushbu maqolada intermediate (B1) darajasidagi IELTS o‘quvchilariga grammatikani o‘rgatishda vazifalarga asoslangan o‘qitish (TBLT) va eksplitsit (ochiq tushuntirish) metodlarining uyg‘unligi tahlil qilinadi. Tadqiqot obyekti sifatida sifatning qiyosiy va orttirma darajalari tanlangan bo‘lib, bunda Biber va boshqalar hamda Endley kabi olimlarning nazariy qarashlariga tayanilgan. Maqolada nazariy bilimlarni real muloqotga ko‘chirishning samarali yo‘llari dars ishlanmasi misolida ko‘rsatib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *vazifalarga asoslangan o‘qitish (TBLT), eksplitsit metod, IELTS, B1 daraja, sifat darajalari, dars ishlanmasi, real muloqot.*

Abstract. *This article analyzes the integration of Task-Based Language Teaching (TBLT) and explicit instruction methods in teaching grammar to intermediate (B1) level IELTS learners. The comparative and superlative degrees of adjectives were selected as the object of research, drawing upon the theoretical perspectives of scholars such as Biber et al. and Endley. Through a sample lesson plan, the article demonstrates effective ways to transfer theoretical knowledge into real-world communication.*

Keywords: *Task-Based Language Teaching (TBLT), explicit instruction, IELTS, intermediate (B1) level, degrees of adjectives, lesson plan, real communication.*

Ingliz tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda (EFL) grammatika ko‘pincha quruq qoidalar va mashqlar orqali o‘rgatiladi. Biroq, IELTS kabi xalqaro imtihonlarga tayyorlanayotgan o‘quvchilar uchun grammatikani nafaqat bilish, balki uni nutqda moslashuvchan qo‘llash muhimdir. Mazkur maqola o‘quvchilarning an‘anaviy grammatik ko‘nikmalarini TBLT yondashuvi orqali kommunikativ kompetensiyaga aylantirish tajribasini tavsiflaydi. Tadqiqot jarayoni xususiy o‘quv markazida tahsil olayotgan, jami 8 nafar (5 qiz va 3 o‘g‘il) o‘quvchidan iborat guruhda amalga oshirildi. O‘quvchilarning yoshi 15 dan 17 gacha

bo'lib, ularning umumiy til bilish darajasi CEFR shkalasi bo'yicha B1 (Intermediate) darajasiga muvofiq keladi. Mazkur guruhning o'ziga xos pedagogik xususiyati shundaki, ular uzoq vaqt davomida an'anaviy grammatik-tarjima metodikasi va faqat deduktiv yondashuv asosida ta'lim olib kelishgan. Bu esa o'quvchilarda grammatik qoidalarni nazariy jihatdan mukammal bilish, ammo spontan nutq jarayonida murakkab lingvistik strukturalarni qo'llashda kreativlik va ravonlikning yetishmasligiga sabab bo'lgan. Shuni inobatga olgan holda, dars rejasini tuzishda o'quvchilarning mavjud bazasini muloqotga ko'chirish masalasi asosiy maqsad etib belgilandi.

Darsning ilmiy-nazariy poydevorini shakllantirishda ikki xil konseptual yondashuvdagi adabiyotlar tahlil qilindi. Birinchi navbatda, sifatlarning semantik va strukturaviy xususiyatlarini ochiq-tushuntirish uchun Endley asari asos qilib olindi. Muallif sifatlarning darajalanish xususiyatiga ko'ra "gradable" va "non-gradable" turlarini chuqur tahlil qilib beradi. Bu tushuncha o'quvchilar uchun juda muhim, chunki barcha sifatlarning ham qiyosiy daraja hosil qila olmasligini tushunish grammatik xatolarning oldini oladi. Shuningdek, Endley morfologik yasashiga ko'ra qo'shimchalar orqali hosil bo'ladigan "inflectional comparison" (-er, -est) hamda "more" va "most" so'zlari yordamida yasaladigan "periphrastic form" o'rtasidagi farqlarni semantik jihatdan asoslab beradi. Ikkinchi manba sifatida Biber va boshqalar tomonidan taqdim etilgan korpus tahliliga tayangan grammatik qo'llanmadan foydalanildi. Ushbu manba sifat darajalarining shunchaki nazariy qoidalarini emas, balki ularning turli nutq registrlaridagi real ishlatilish chastotasini ochib beradi. Masalan, korpus ma'lumotlari "periphrastic" shakllarning akademik nutqda ko'proq uchrashini, so'zlashuv nutqida esa ko'pincha qisqaroq, "inflectional" shakllar ustunlik qilishini ko'rsatadi. Mualliflar ta'kidlaganidek, sifat darajalarining qo'llanilishi ko'p hollarda "syllabic rules" bilan cheklanib qolmay, balki so'zning semantik yuklamasi va gapning umumiy registriga ham bog'liq. Ushbu ikki manbaning sintezi darsda o'quvchilarga nafaqat "qanday yasashini", balki "qayerda va qaysi shaklda ishlatishni" ham o'rgatishga imkon berdi. Bu esa o'z navbatida intermediate darajadagi o'quvchilarning real muloqotda lingvistik jihatdan moslashuvchan bo'lishlarini ta'minlaydi.

TBLT metodikasining qo'llanilishi. Dars jarayoni o'quvchilarning o'rganish uslubini hisobga olgan holda uch bosqichda tashkil etildi:

vazifa oldi tayyorgarlik – Bu bosqichda o'qituvchi mavzuni eksplitsit (ochiq) tushuntirib berdi. Bir bo'g'inli va ko'p bo'g'inli sifatlarning yasalishi, "than" bog'lovchisining o'rni va noto'g'ri shakllanadigan sifatlarning (*good-better-best*) ko'rib chiqildi. O'quvchilar tushuntirishdan so'ng bo'shliqlarni to'ldirish va xatolarni tuzatish kabi mashqlarni bajarib, bilimlarini mustahkamladilar.

asosiy vazifa – O‘quvchilar kichik guruhlarga bo‘lindi va ularga “Sayohat uchun eng yaxshi davlat” mavzusida bahs tashkil qilish topshirildi. Masalan, AQSH va Xitoyni taqqoslab, nima uchun aynan bir davlat sayohat uchun qulayroq ekanini isbotlash. O‘quvchilar “taller than”, “the most beautiful”, “more exciting” kabi birikmalardan bahs davomida tabiiy foydalandilar.

vazifadan keyingi tahlil – Guvendir va Hardacre ta’kidlaganidek, korrekativ fikr-mulohaza bu bosqichning asosidir. O‘quvchilar muloqot davomida yo‘l qo‘ygan xatolarini qayta ko‘rib chiqdilar va jummalarni akademik jihatdan to‘g‘ri shaklda qayta yozdilar.

Eksplitsit tushuntirish va TBLT metodining birgalikda qo‘llanilishi o‘quvchilarda “til qo‘rquvi”ni kamaytiradi. Chunki o‘quvchi avval qoidani o‘rganib, so‘ng uni amaliyotda sinaydi. Bu yondashuv aynan IELTS’ga tayyorlanayotgan, lekin muloqotda grammatik to‘siqlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun eng maqbul yo‘ldir. Korpusga asoslangan misollar esa o‘quvchilarga tilning faqat darslikdagi emas, balki hayotdagi jonli holatini tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Biber, D., Johansson, S., Leech, G.N., Conrad, S., & Finegan, E. (2021). Grammar of Spoken and Written English. John Benjamins.
2. Endley, M. J. (2010). Linguistic Perspectives on English Grammar. Routledge.
3. Guvendir, E., & Hardacre, B. (2020). Task-Based Language Teaching: Applications and Recommendations.
4. Ellis, R. (2016). Focus on Form in Language Teaching. Oxford University Press.

